

SONNING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Musurmonova Guljaxon SHerzod qizi

SHahrisabz davlat pedagogik instituti

Boshlangich talim 1-kusr talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida mustaqil so'z turkumlaridan biri bo'lgan sonning leksik-grammatik xususiyatlari har tomonlama ilmiy asosda tahlil etib beriladi.O'zbek tilining boy leksik- manaviy tizimida son so'z turkumi alohida o'rin egallaydi . U nafaqat predmetlar miqdori va tartibini ifodalovchi vosita sifatida, balki til strukturasining muhim semantik va grammatick bo'g'ini sifatida ham e'tiborga loyiqdir. Maqolada sonlarning til tizimidagi o'rni, ularning semantik tafovutlari,morfologik shakllanish jarayonlari, funksional imkoniyatlari hamda gapdagi sintaktik rollari(aniqlovchi, ega, kesim va h.k.) batafsil yoritiladi.

Abstract . This article analyzes the lexical and grammatical properties of the number, which is one of the independent word classes in Uzbek linguistics, on a comprehensive scientific basis. The number word class occupies a special place in the rich lexical and semantic system of the Uzbek language. It is noteworthy not only as a means of expressing the quantity and order of objects, but also as an important semantic and grammatical link in the structure of the language. The article discusses in detail the role of numbers in the language system, their semantic differences, morphological formation processes, functional capabilities, and syntactic roles in a sentence (determinative, possessive, participial, etc.).

Абстрактный. В статье дается комплексный научный анализ лексических и грамматических свойств слова число, которое является одной из самостоятельных групп слов в узбекском языкоznании. Слово число занимает особое место в богатой лексико-семантической системе узбекского языка. Он примечателен не только как средство выражения количества и порядка предметов, но и как важный семантический и грамматический элемент структуры языка. В статье подробно рассматриваются роль числительных в системе языка, их семантические различия, процессы морфологического

образования, функциональные возможности, синтаксические роли в предложении (дeterminантные, притяжательные, причастные и т. д.)ю

Kalit so'zlar: *son so'z turkumi, hisob so'z , sanoq son, miqdor son, tartib son, sonni o'rganish metodikasi*

Ключевые слова: *числовой словарь, счетный словарь, счетное число, количественное число, порядковое число, методика изучения чиселю*

Keywords: *number vocabulary, counting vocabulary, counting number, quantitative number, ordinal number, number learning methodology.*

Narsalarning son-sanog'ini va tartibini bildirib, qancha ?, necha?, nechanchi? So'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarga son deyiladi. Hozirgi o'zbek tilida predmetning miqdorini, son-sanog'ini ifodalash uchun ko'proq yigirma uchta sondan foydalilaniladi. Bulardan to'qqiztasi o'nlik sonlar: bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz; to'qqiztasi o'nlik sonlar : o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to'qson; beshtasi yuzlik, minglik va yuqori sonlarni bildiradi: yuz, ming , million, milliard. Bu sonlarning barchasi miqdorga egalik ma'nosini ifodalovchilar sifatida nolga zidlanadi. Nol son miqdorga ega emaslikni bildiradi. Qolgan sonlar birlik sonlarning o'nlik songa qo'shiluvidan , shuningdek, yuzlik va undan yuqori son oldidan birlik, o'nlik sonlarning keltirilishidan hosil bo'ladi.

Sonlar predmetlarning aniq miqdoriy belgilarini bildiradi. Ana shu xususiyati bilan miqdor bildiruvchi so'zlardan farq qiladi. Solishtiramiz : magazindan kitob odim. (Miqdori bittami , undan ortiqmi , noma'lum). Magazindan ko'p kitob oldim. (Miqdori bittadan ortiq , lekin nechta noma'lum). Magazindan o'nta kitob oldim . (Miqdorning nechta noma'lum).

Sonlar ma'no xususiyatiga ko'ra, 2 ta asosiy turga bo'linadi: miqdor sonlar va tartib sonlar. Miqdor sonlar predmetning miqdori, sanog'iga ko'ra belgisini ko'rsatadi. O'zbek tilida miqdor sonlar 6 turga bo'linadi: sanoq son, dona son, chama son, jamlovchi son, taqsim son va kasr sonlar kiradi. Sanoq son predmetning sanog'ini bildiruvchi miqdor son turi (bir, ikki, o'n, yuz). Dona son- predmetning miqdorini donalab ko'rsatuvchi miqdor son. Bunday sonlar sanoq songa ta qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi (beshta kitob, qirkta daftар). Predmetlarni donalab ko'rsatishda sonlar juft, metr, nusxa, nafar, bosh, tup kabi hisob (numerativ) so'zlar bilan birga qo'llanadi: bir juft qo'shiq, besh tup o'rik kabi. Chama son

predmetning noaniq miqdorini, taxminan hisobini ko'rsatadi. Miqdor sonning bu turi 2 usul bilan: sanoq songa tacha, lab, larcha affikslaridan birini qo'shish (yuztacha, yuzlab, yuzlarcha) va turli sonlarni juftlash yoki ayrim so'zlar bilan birga qo'llash (birikki kun, o'n-o'n ikki yashar bola) orqali hosil qilinadi. Jamlovchi son bir turdag'i predmetlarning yig'indisini ifodalaydi, ularni jamlab ko'rsatadi; sanoq songa ov, ala affiks larini qo'shish bilan hosil qilinadi (beshov, oltov; uchala, to'rtala). Taqsim Son predmet miqdorini teng qismlarga taqsimlash, guruqlash yo'li bilan bildiradi va sanoq songa tadan affiksini qo'shish orqali hosil qilinadi (beshtadan bo'lib kelmoq, to'rttadan qalam ushlarimoq). Kasr son butunning qismlarini bildiradi va odatda, sanoq sonning chiqish va bosh kelishik shaklidagi birikmasi orqali ifodalanadi: uchdan ikki, o'ndan bir kabi. Yarim (yorti), chorak, nimchorak so'zları ham kasr sonlardir. Tartib son predmetning anik, miqdorini, ketma-ketligini ifodalaydi. Ular sifatlarga yaqin bo'lib, ular kabi predmet belgisini bildiradi; sanoq sonlarga - (i)nchi (ba'zan lamchi) affiksining qo'shilishidan hosil bo'ladi: birinchi, ikkinchi, o'ninchi; birlamchi, ikkilamchi.

Sanoq son bilan sanaladigan narsalarni ifodalovchi so'z o'rtasida qo'llanilib, bu narsaning o'lchovini bildiradigan so'zlar hisob so'zlar deyiladi. Masalan: bir hovuch suv, ikki qop un, bir xalta turshak, uch etak paxta, o'n chelak suv, ikki savat non ,o'n yashik olma . Tilimizda turli xil o'lchovlar va shu o'lchovlarning o'z birliklari bor.

No	O'lchov tulari	O'lchov birlıkları	Tarixiy o'lchov
1	Og'irlik o'lchovlari	Milligramm, gramm, kilogram,litr, tonna, senter	Misqol, botmon, paysa, dahsar
2	Uzunlik o'lchovlari	Millimetrik, santimetr, detsimetr, kilometr	CHaqirim , qarich, yog'och, gaz
3	Donolik o'lchovlari	Dona, bosh, nafar, tup	Dona, bosh, nafar
4	Maydon o'lchovlari	Sotix, gektar	Tanob

Shaxs va narsaning sanog'ini bildirgan so'zlar Necha?, miqdorini bildirgan so'zlar Nechta?, Qancha? tartibini bildirgan so'zlar Nechanchi? So'rog'iga javob bo'ladi. Masalan: besh (Necha?) baho, Sakkizta (Nechta?) kitob, oltinchi (

Nechanchi?) qavat.

Sanoqni bildiruvchi so'zlar Necha? O'n, yeti, ikki	Miqdorni bildiruvchi so'zlar Nechta? Qancha? O'nta, yettita, ikkita	Tartibni bildiruvchi so'zlar Nechanchi? O'ninchi, yettinchi.
--	---	--

“ Son” ni o’rganish tizimi ham son haqidagi materialni leksik va gramma tik tomondan sinfdan –sinfga o’tgan sayin boyitib , murakkablashtirib borishni nazarda tutadi.

Boshlang’ich ta’limda son uch yo’nalishda o’rganiladi:

1. Sonlarning talaffuzi va ma’nosi ustida ishlash.
2. Sonning grammatik shakllari ustida ishlash.
3. Sonlarning imlosi ustida ishlash.

Son boshlang’ich sinflarda quyidagi izchillikda o’rganiladi:

Ikkinci sinfda nechta?, qancha? So’roqlariga javob bo’lib, shaxs va narsaning sanog’ini, nechanchini so’rog’iga javob bo’lib, shaxs va narsaning tartibini bildirishi;

Uchinchi sinfda “Son – so’z turkumi” tushunchasi kiritiladi. O’quvchilarda son predmetining miqdorini bildirishini otga bog’lanib kelishi yordamida aniqlash ko’nikmasi o’stiriladi. Bularni o’rganishda sonning leksik xususiyatlariga asoslaniladi. Sonning leksik ma’nosi uni ot bilan bog’liq holda o’rganishni taqazo etadi.

To’rtinchi sinfda sanoq va tartib sonlar, tartib sonlarning harf, rim va arab raqamlari bilan yozilishi, qo’sh undoshli sonlarning, grammatik shaklangan sonlarning imlosi, sonlarning gramm, kilogram, metr, litr, sum tiyin so’zlari bilan qo’llamishi va shu so’z bilan bitta so’roqqa javob bo’lishi o’rganiladi. O’quvchilarning sonlarning otga bog’lanishi, so’roqlar yordamida sonni o’zi bog’langan so’z bilan ko’chirish ko’nikmalari o’stiriladi.

Shunday qilib, sonning leksik-simantik va gramma tik xususiyati uning leksik va gramma tik aspektda taqazo etadi. Son Grammatik va imlo o’qitishdagi suhbat metodida, yarim izlanishli muammoli metoddha, analitik, sentitik, induktuv metodlarda o’rganiladi. Bu metodlar son yuzasidan beriladigan tushuchalarning mohiyatiga, o’quvchilarning tayyorlarlik darajasiga bog’liq holda tanlanadi. Agar

o'quvchi son haqida ma'lum darajada bilimga ega bo'lsa, yarim izlanishli muammoli metod yoki suhbat metodidan; agar son haqida umuman tushunchafga ega bo'lmasa, induktiv va analitik metodlardan foydalaniladi. Ma'lumki, savod o'rgatish davrida o'quvchilar bilan kundalik ishlar, rasmlar, predmetlar, mavzular yuzasidan og'zaki savol-javoblar o'tkaziladi. Masalan, "Bugun nechanchi sana? Biz nechanchi asrda yashayapmiz? Bu yil nechanchi yil? Darsga nechta o'quvchi kelmadi? Bir yil necha faslga bo'linadi? Yilning birinchi fasli qaysi? " yoki mantiqiy masalalar ishslash bilan bog'liq holda ham o'rgatish mumkin.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Nargiza Erkaboyeva (2021) O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami Toshkent: "Yosh kuch" nashriyoti.
2. K. qosimova, S. Matjonov, X. G'ulomova, Sh, Yo'ldosheva, Sh. Sariyev (2017) Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: "NOSIR" nashriyoti.
3. K. qosimova, S. Matjonov, X. G'ulomova, Sh, Yo'ldosheva, Sh. Sariyev (2009). . Toshkent: "NOSIR" nashriyoti.
4. <https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0041/2-7.pdf>